

## TARBIYA DARSLARIDA O`QUVCHI VA O`QITUVCHINING O`Z USTIDA ISHLASHI

**Shaxnoza Qudratova Baxtiyorovna**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o`qituvchisi*

**Beshimova Muazzam Bahodirovna**

**To`lanboyeva Farangis**

*TAFU 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o`quvchini o`qituvchi darsga yanada qiziqtira olishi va shu bilan bir qatorda zamonaviy talqinda darsslarni tashkil etish, o`qituvchi va o`quvchi o`z ustida birdek ishlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** *tarbiya, metodika, jismoniy rivojlanish, psixologik, yosh doirasi, ijtimoiy faoliik, jamoa.*

**Abstract:** In this article, the teacher can make the student more interested in the lesson, and at the same time, the organization of lessons in a modern interpretation, the teacher and the student work on themselves as one.

**Key words:** education, methodology, physical development, psychological, age range, social activity, team.

**Аннотация:** В данной статье учитель может заинтересовать ученика уроком, и в то же время, при организации урока в современной интерпретации, учитель и ученик работают над собой как единое целое.

**Ключевые слова:** воспитание, методика, физическое развитие, психологическое, возрастной диапазон, социальная активность, коллектив.

Tarbiya darslarida o`quvchi va o`qituvchi o`z ustida ishlashi juda muhimdir. Bu jarayonda o`quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ma`naviy- axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, hamda o`qituvchining o`z professionallik darajasini oshirish juda zarurdir. Bu jarayonda nafaqat o`qituvchi balkim ota-onha ham bolaning tarbiyasida birdek ma`sul shaxs hamda juda katta rol o`ynaydi. Shuningdek o`quvchi va o`qituvchi o`rtasidagi munosabatlar ta`lim jarayonida muhim o`rin egallaydi. O`qituvchilar o`zlarining bilimlarini, tajribalarini va tarbiya berish metodikalarini takomillashtirish yangi fikir va g`oyalarini kirdizishlari kerak. O`quvchilar esa ustozlardan olgan o`z bilim va ko`nikmalarini rivojlatirishga etibor berishlari lozim. Professional<sup>39</sup> rivojlanishda o`qituvchilar o`z ustilarida ishlashlari malakalarini oshirishlari uchun muntazam ravishda seminarlar va treninglarda qatnashishlari lozimdir. Chunki har bir olgingan yangi bilim, g`oyalar darsda qo`nlaganda o`z samarasini ko`rastadi. Yangi metodlar yaratish va uni darslarda qo`nlash bolalarda qanday o`zgarishlarni ko`rish so`ngra ularni taxlil qilish kerak. Zamonaviy ta`lim usulublarini o`rganish va ularni darsda qo`llash orqali o`quvchiga ta`sir o`tkazish mumkin. Tarbiya to`g`risidagi turli xil videolarni oladigan bo`lsak uni o`quvchiga

<sup>39</sup> Munavvarov A.K. Pedagogika. T.1996-yil.

ko`rastib o`sha video ro`likga qanday fikr bildirishini hamda u qanday xulosa chiqqarganligini ko`rish kerak. Bu jarayonda o`quvchi va o`qituvchi tarbiya bo`yicha birga ishlaydi. Yaponiyada bolalarga tarbiya berishda ularning oilasini video ro`lik qilib tayyorlab ko`rsatishadi. Ota onasi qiyinalib qanday pul topayotganini va farzandini o`qitayotganini ko`rastib berishadi. Buning ham albatta tarbiyaga bog`lik katta ahamiyadli joyi bordesam hech adashmagan bo`laman mening fikrimcha.Yana shuni aytish lozimki Yaponiyada “Ikudzi<sup>40</sup>“prinsipiga asosan( bola avval xudo, keyin xizmatkor), besh yoshgacha bolaga hamma narsa mumkin. Bu ko`plab xorijliklar o`ylagandek irodasizlik va bo`ysunmaslik emas. Aksincha bolada “ men yaxshi va sevimliman” tushunchasini hosil qilishi hisoblanar ekan. Bizda esa boalani ona qornida yo`q tarbiyalash kerak deyishgan.O`quvchilardan va ota-onalardan mulohazalar olish orqali o`qituvchilar o`z ishlarini yanada takomillashtirishlari mumkin.

O`z-o`zini baholash o`quvchilarni bilimlarini va ko`nikmalarini nazorat qilish uchun testlar,rezyume yoki portfellar yaratish mumkin. O`quvchilar o`z xulq-atvori,kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilib, o`zlarini yaxshilashga harakat qilishlari lozim.Ma`naviy va axloqiy qadryatlarni o`rganishda o`quvchilar tarbiya darslarida insoniylik,adolat, rahm- shafqat kabi qadiriyatlarni o`rganishlari va amaliyotga tatbiq etishlari kerak.

O`quvchilar turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi,muammolarni hal qilishni va o`z fikrlarini bayon etishni o`rganishlari kerak. Sababi o`quvchi o`z fikrini bayon qilaolmasa u o`sib ulg`aygan sari jamoaga va ko`pchilikni orasida ham o`z fikrini aytal olmaydigan bo`lib qoladi.Bunda albatta maktabda ustozlarimiz savol berishganda bola javob berayotganida sening so`zing noto`g`ri o`tir deb emas uning so`zlarini to`g`irlab oxirigacha tinglash kerak.

Ijtimoiy faollik umumiyl o`rtalim muassasalarida tashkil qilingan pedagogik jarayon mazmuni ustida ishlash va tarbiyaviy jarayon subyektlarining o`zligini namoyon qilishlarida katta imkoniyatga egadir.Manbalarning tahlilida shuni ko`rsatadiki, demokiratik jamiyatda o`quvchilar ijtimoiy faolligi o`z-o`zidan yuzaga kelmaydi,balki muntazam tarzda maqsadli ravishta olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllanadi.

Bu haqida Dj.Kaprara va boshqalarning (1999) tadqiqotlari natijalariga ko`ra, ijtimoiy fe'l-atvor me'yorlariga amal qilish o`zaro hamkorlik va bir-biriga yordam ko`rsatishga imkoniyat yaratadi- o`zaro simpatiyani hosil qiladi, ta'lif jarayoniga halaqt qiluvchi depressiyaga hamda muammoli fe'l-atvorga qarshi kurashishga undaydi,deya aytib o`tib ketgan.

Boshlang`ich ta'lilda tarbiya darslarida o`quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning jamoat joylarida tartib-intizomga rioya qilishlari, kattalarga yordam berish ruhida tarbiyalash g`oyasini bir qator mavzusini kitoblarda kiritilgan. Misol uchun 1- sinf “Tarbiya “ darsligini oladigan bo`lsak “ Mening mahallamda yashash yaxshi” mavzusida o`rganishga o`quvchilarga mahallasidagi o`zgarishlar, insonlarning yashash va mehnat sharoitlari, mahalladagi tengdoshlari bilan birlgilidka mahallani toza,ozoda tutish lozimligi, chiqindilarni maxsus idishlarga tashlash kerakligi haqidagi bilimlar ham berib boriladi.

<sup>40</sup> Rajabov S.R. “Mutaxassislikka kirish”. T.1991-yil.

O`quvchilar har doim ustozi ko`rsatgan yo`ldan yurishadi va ustozing aytgan hamma gapi to`g`ri deb qabul qilishadi. Shuning uchun ham ularni qay yo`lga boshlasak o`sha tomonga ketishadi.



Bolalarda jismoniy rivojlanish bosqichlari 4 bosqichda o`tadi. ida 3 yoshgacha

1-tug`ilganida 3 yoshgacha bo`lgan davr

2- 3yoshdan 10 yoshgacha bo`lgan davr

3- 10 yoshdan 12 yoshgacha bo`lgan davr

4- 12 yoshdan keyindi davrlarga bo`linadi.

Jismoniy rivojlanishda eng aniq o`zgarishlar tananing shakli va o`lchamidagi o`zgarishlardir. Ota-onalar bolalarning bu yoshida albatta e'tiborli bo`lishlari kerak.

**Xulosa** qilib shuni aytamanki o`qituvchi va o`quvchilar o`z ustida ishlash ortqali ta`lim sifatida oshirishlari, o`zaro fikr almashishni yaxshilashlari va ta`lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashlari mumkin. Bunday yondashuv barcha jarayonlarda o`zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytiradi. Tarbiya darslarida o`quvchi va o`qituvchining o`z ustida ishlashi muhim jarayon bo`lib, bu jarayon orqali har ikki tomon ham o`zlarini rivojlantirib, jamiyatga foydali insonlar sifatida o`sishlari mumkin. Biz pedagoglar bolalarga to`g`ri va ularni zamon bilan ham nafas bo`lgan holda ta`lim berishimiz kerka. Albatta tarbiya birinchi o`rinda shuning uchun ota-onalar, ustozlar bolaning tarbiyasiga be`etibor bo`lmasligimiz kerak. Xalqimizda bir maqol bor “bir bolaga yetti mahalla ota-on” shunday ekan bolaning tarbiyasiga barcha ma’sul. Har bir bola daho bo`lishi mumkin-bizning vazifamiz ularning ichidagi iqtidor chirog`ini yoqishdir.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLA:**

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Ta'lif to'g'risidagi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va ma'rifat sohasini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari va farmonlari.
- 4.Jo'rayev N., Rahimov A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: TDPU, 2021.
- 5.Axmedova N., Xolboyeva M. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2019.
- 6.Qo'shnazarova M. O'qituvchining o'z ustida ishlashi. – T.: O'qituvchi, 2020 Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lif vazirligi metodik tavsiyalari (so'nggi yillardagi).
- 7.Pedagogik jurnallar: Tarbiyachi, Ma'rifat, Xalq ta'limi (so'nggi sonlari).